

“ESTRADA SAHNASIDA PORLAGAN YULDUZ” (BOTIR ZOKIROV IJODIGA BIR NAZAR)

Sobirjonova Sarvinov

O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san’ati institute Estrada cholg‘ularida ijrochilik va dirijyorlik kafedrasida 3- bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek estrada san’atining asoschilaridan biri, betakror ovoz sohibi va sahna madaniyatini yangi bosqichga olib chiqqan san’atkor, xonanda O‘zbekiston xalq artisti Botir Zokirovning ijod yo‘li yoritilgan.*

Maqolada xonanda musiqiy faoliyatining shakllanish bosqichlari, repertuaridagi janrlar rang-barangligi, milliy va jahon musiqasi uyg‘unligi hamda o‘zbek estradasida rivojiga qo‘shgan ulkan hissasi tahlil qilinadi. Shuningdek, Botir Zokirov ijodining yosh ijrochilar tarbiyasidagi ahamiyati va bugungi zamonaviy estrada san’atiga ta’siri ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *xonanda, qo‘shiq, myuzik-xoll, vokal, zamonaviy estrada, estrada-simfonik orkestr.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается творческий путь одного из основоположников узбекского эстрадного искусства, обладателя уникального голоса и артиста, поднявшего сценическую культуру на новый уровень — Батыра Закирова. В статье анализируются этапы формирования его музыкальной деятельности, жанровое разнообразие репертуара, гармоничное сочетание национальной и мировой музыки, а также его значительный вклад в развитие узбекской эстрады. Кроме того, раскрывается значение творчества Батыра Зокирова в воспитании молодых исполнителей и его влияние на современное эстрадное искусство.*

Ключевые слова: *певец, песня, мюзик-холл, вокал, современная эстрада, эстрадно - симфонический оркестр.*

Abstract: *This article examines the creative path of Botir Zokirov, one of the founders of Uzbek pop music, a performer with a unique voice, and an artist who elevated stage culture to a new level. The article analyzes the stages of his musical development, the genre diversity of his repertoire, the harmony of national and world music elements, as well as his significant contribution to the development of Uzbek pop art. In addition, the importance of Botir Zokirov's tvorchestvo in the education of young performers and its influence on contemporary pop music are highlighted.*

Keywords: *singer, song, music hall, vocal, modern pop music, pop-symphonic orchestra.*

O‘zbekiston xalq artisti, xonanda, aktyor, rassom Botir Zokirov 1936-yilda Moskva shahrida tug‘ilgan. Botir Zokirov o‘zbek zamonaviy professional estrada qo‘shiqchiligidan asoschisi hisoblanadi. 1960-1970 yillardayoq Botir Zokirovning nomi

nafaqat respublikamizda, balki yaqin va uzoq xorij mamlakatlarida ham estrada qo'shiqlari ixlosmandlari orasida mashhur edi. Botir Zokirov uka-singillari kabi yoshligidan Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatri hamda Muqimiy nomidagi O'zbek davlat musiqali teatrlari spektakllarining bevosita ta'sirida o'sib-ulg'aydi. Har doim xonadonlarida yangrab turgan kuy-qo'shiqlar, otasi Karim Zokirov va onasi Shoista Saidovaning teran mashqlari yosh Botirda san'at exromiga, teatr va qo'shiqqa bòlgam cheksiz muhabbat chògini soldi.

1952-yili Botir Zokirov konservatoriyaning vokal bo'limi talabasiga aylandi. Bu dargohda u Toshkentga Leningraddan (hozirgi Санкт-Петербург) kelgan vokal maktabi ustasi, pedagog Yevgeniya Ivanovna Buzanskaya sinfida tahsil ola boshladi.

U darsdan tashqari vaqtlarini G'arb va Sharq qo'shiqlarini chuqur o'rganishga bag'ishlaydi. Bir necha yillar davomida Botir Zokirov va sinlisi Luiza Zokirova bilan birgalikda - ozarbayjon, tojik, turkman, qirg'iz, hind, eron, afg'on, arab tillaridagi qo'shiqlarni ma'romiga etkazib, badiiy ta'sirchan duetlar ijro etishdi.

Afsuski, Botir Zokirov konservatoriyada o'qishni tugatolmadi. "Yoshlik" ansambliga rahbarlik qilgan taniqli rejissyor Aleksandr Osipovich Ginzburg uning rejissyorlik qobiliyatini payqab, qo'shiq, xonandalik va umuman san'atdan yiroqlab ketmasligi uchun Toshkent teatr va rassomchilik institutining rejissyorlik fakultetida o'qishni davom ettirishni taklif qildi. 1956-yildan boshlab xonanda A.O.Ginzburg sinfida tahsil oladi. 1958-yili O'zbekistonda birinchi estrada-simfonik orkestr tashkil etilib, Botir Zokirov singlisi Luiza bilan orkestrning yakkaxonlariga aylanadi. Aynan ushbu estrada-simfonik orkestrda, so'ng esa xonanda tashkil etgan "Myuzik-xoll" faoliyatida Botir Zokirovning ijrochilik salohiyati takomillashdi. 1958-yili B. Zokirovning sa'y-harakatlari bilan O'zbekistonda birinchi Davlat estrada orkestri tuzildi. Shuni aytib o'tish lozimki, orkestrda o'sha vaqtda taniqli kompozitorlar - Yan Frenkel va Albert Malaxov (orkestrning badiiy rahbari va dirijyori) faoliyat ko'rsatib, ular Botir Zokirov repertuaridagi, keyinchalik eng sara mumtoz asarlarga aylangan qo'shiqlarning asosiy aranjirovkachilari bo'ldilar.

1959-yili Moskvada bo'lib o'tgan o'zbek adabiyoti va san'ati dekadasida Botir Zokirov ijrosida yangragan taniqli arab muallifi Dorish Al-Attoshning "Arab tangosi" qo'shig'ining o'ta teran talqini xonandani dunyoga tanitdi. Botir Zokirov "Arab tangosi" g'azal matnining talaffuziga izchil rioya qilgan holda, qo'shiqni mo'tadil tarzda — sokin va erkin kuylagan. Shu sababli, aynan "Arab tangosi" Botir Zokirov timsoliga aylangani bejiz emas.

Botir Zokirovning 1966-yili Moskva "Myuzik-xoll"i bilan Parijga qilgan ijodiy safari xonanda uchun unutilmas, yorqin xotiralar olib keldi. Xonanda Parijning jahonga mashhur "Olimpiya" estrada teatri sahnasida o'z qo'shiqlarini ijro etishga muvaffaq bo'ldi va katta shuhrat qozondi.

Fransiyadagi gastrollar davomida xonanda nozikta'b fransuzlarni o'zbek, rus, arab, eron qo'shiqlari bilan bir qatorda, fransiyalik mashhur kompozitorlar qo'shiqlari bilan ham maftun etdi.

Botir Zokirov O'zbekiston estrada-simfonik orkestri bilan ishlagan paytida nafaqat estrada janridagi asarlarni, balki taniqli o'zbek kompozitorlari qalamiga mansub "mumtoz" qo'shiq va romanslarni ham maromiga etkazib kuylagan. Mutal Burhonovning "Maftun bo'ldim" (nomdosh filmdagi) qo'shig'i va "Namedonam, chi nom dorad" romansi, Sayfi Jalilning "Majnun monologi", "Kechalar yulduz sanab" kabi vokal asarlari ana shular jumlasidandir. Kompozitorlar xonandaning ovozigacha moslab maxsus qo'shiqlar yaratganlari ma'lum. Botir Zokirov ijro repertuaridan o'rin olgan asarlar kuzatilsa, ko'plab taniqli mualliflar nomlarini uchratamiz. Masalan: E. Shvarts "Yaxshimisiz", T. Boboyev "Qiz va xum", "Taqdir haqida qo'shiq", "Uchrashuv ko'chasi", "Muhabbat", E. Kalandarov "Kupola", A. Muhammadov "Bir oqshom", "Seni eslayman", E. Solihov "Hech kim aybdor emas", "Sog'indi jon", S. Yudakov "O'zbek tangosi" va boshqalar.

Bolalik chog'larida Botir Zokirov respublika pionerlar uyi qoshidagi "Tasviriy san'at" studiyasiga qatnashgan. Chizib qoldirgan suratlarida she'r va kuylar, qo'shiqlarga sig'magan fikr va tuyg'ular rangin bo'yoqlar orqali naqshlanib qoldi. Uning turli yillar davomida yaratilgan "Oqshom", "Avtoportret", "Buxoro manzarasi", "Yolg'izlik", "Saraton", "Gumbazlar", "Samarqand", "Bolalik ko'chasi" kabi kartinalari saqlanib qolgan bo'lib, aksar qismi qo'shiq va she'r ta'sirida, ayrimlari esa betoblik damlarida yaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi 16.10.2021 - yildagi PQ - 5261 - son Prezidentning qarori bilan, O'zbekiston davlat kanservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti tashkil etildi. Hozirda u erda 500 dan ziyod talabalar tahsil olmoqda. Talabalar Respublikamizda o'tkazilayotgan turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning asosiy ishtirokchilaridir.

Shuningdek, Xalqaro hamda Respublikada tanlovlarining doimiy ishtirokchilari hamda g'oliblaridir. Umuman olganda, Botir Zokirov o'zbek estrada san'atida o'chmas iz qoldirgan betakror iste'dod sohibidir. U o'zining noyob ovozi, yuksak ijrochilik, sahna madaniyatiga yangicha yondashuvi hamda milliy va jahon musiqasini uyg'unlashtira olgan san'atkor sifatida estrada san'ati taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi.

Botir Zokirovning boy ijodiy merosi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, ular yosh ijrochilar uchun ijodiy maktab va ilhom manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Uning san'at yo'li o'zbek estrada madaniyatining rivojlanish tarixida muhim bosqich sifatida e'tirof etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдуллаев Р. Традиции музыкального фольклора и современность.
2. «An'anaviy madaniyatni saqlash muammolari» Boysun bahori Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. Boysun. 2003.- 14-19 b.
3. Амбарцумова Г. Человек стоявший у истоков узбекской эстрады // Звезда Востока - Т, 1986.- №7- С. 182-183.

4. Аманмурадова С. Традиции песен эстрадного искусства Египта и Узбекистана (на примере творчества Умми Кулсум и Батыра Закирова).

5. Алимбаева К. Узбекская музыкальная драма. // История узбекской советской музыки. - Т.: ГИЛИ им Гафура